



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGINI TASHKIL ETISHDAGI INTERFAOL METODLARGA QO'YILGAN TALABLAR

Karimboyeva Charosxon Ergash qizi

*Urganch innovatsion universiteti "Boshlang'ich ta'lim va psixologiya" kafedrası Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligini tashkil etishdagi bir qancha interfaol metodlardan foydalanish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Metod, interfaol, boshlang'ich ta'lim, ona tili, dars, sinf.

Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, muloqotga kirisha oladigan va axborotni tahlil qila oladigan shaxs sifatida shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida ona tili va o'qish savodxonligini samarali tashkil etish keyingi ta'lim jarayonining poydevorini yaratadi.

An'anaviy reproduktiv metodlar o'quvchilarning faolligini yetarli darajada ta'minlamaganligi sababli interfaol metodlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Interfaol metodlar o'quvchini dars jarayonining faol subyekti sifatida namoyon etadi, hamkorlikda o'rganish muhitini yaratadi hamda bilimni mustaqil egallashga yo'naltiradi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida o'qish savodxonligini tashkil etishda interfaol metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi, ularning qiziqishini oshiradi va o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Quyida boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda e'tiborga olish kerak bo'lgan asosiy jihatlar keltirilgan:

1. Darsning maqsadini aniqlash;
2. Dars rejasini tuzish;
3. O'quvchilarni faol ishtirok etishiga undash

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshiradi, nutqiy faolligini kuchaytiradi va matnni tushunish darajasini yaxshilaydi. Interfaol metodlar — bu o'qituvchi va o'quvchi hamda o'quvchilarning o'zaro faol hamkorligiga asoslangan ta'lim usullaridir [3.54b]. Ularning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: o'quvchilarning darsdagi faol ishtiroki, muloqot va hamkorlik muhit, muammoli vaziyatlarni hal etish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, refleksiya va baholash imkoniyati va boshqalar.

O'qish savodxonligi faqat matnni o'qish emas, balki uni tushunish, tahlil qilish, baholash va hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishni ham o'z ichiga oladi. Interfaol metodlar bu jarayonda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: o'quvchilarning lug'at boyligini oshiradi, og'zaki va yozma nutqni rivojlantiradi, tanqidiy fikrlashni shakllantiradi, matn bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi, ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Masalan, "Aqliy hujum", "Klaster", "INSERT", "Rolga kirish", "BBB jadvali", "Savol-javob zanjiri" [1.71b] kabi metodlar o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi. Har qanday dars jarayonida interfaol metodlarga quyidagicha talablar qo'yiladi:

1. Didaktik talablar:



- metod dars maqsadiga mos bo'lishi;
- o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mosligi;
- bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi;
- dars samaradorligini oshirishi [2.81b].

2. Metodik talablar:

- metodni tanlashda mavzu murakkabligini hisobga olish;
- vaqt taqsimotining to'g'ri tashkil etilishi;
- o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash;
- natijani baholash mezonlarining aniqligi.

3. Psixologik talablar:

- o'quvchilarda erkin fikr bildirish muhitini yaratish;
- ijobiy emotsional muhitni ta'minlash;
- hamkorlik va o'zaro hurmatni rivojlantirish;
- o'quvchilarning o'ziga ishonchini oshirish.

4. Texnologik talablar:

- ko'rgazmalilik va AKTdan foydalanish;
- topshiriqlarning aniq va tushunarli bo'lishi;
- refleksiya bosqichining mavjudligi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Mazkur metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutqiy faoliyati va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni samarali qo'llash uchun didaktik, metodik, psixologik va texnologik talablarni hisobga olish muhimdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ishmuhamedov R. Interfaol ta'lim metodlari. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
3. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2019.